XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING QARORI

Andijon shahar, Abdurauf Fitrat ko`chasi 239-uy

2023 - yil 26 - dekabr VI-57-255-1-0-K/23 Andijon viloyati hokimligi

2024-yil uchun Andijon viloyatining mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25 dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuni, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalariga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25 dekabrdagi 01/30-2-10343-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Qonunga muvofiq Andijon viloyati mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 4 087,3 milliardso‘m, xarajatlari 6 601,1 milliardso‘m prognoz qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 1 913,8 milliard so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Andijon viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2027-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2024-yil uchun viloyatning viloyat byudjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2024-yil uchun viloyatning viloyat byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun tumanlar va shaharlar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Andijon viloyati bo‘yicha

G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

5. 2024-yil uchun tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2024-yil uchun viloyatning viloyat byudjetidan tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ushbu Qarorda nazarda tutilgan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlarini tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’i nazar, kamaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

2024-yil uchun viloyat hamda tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlari aylanma kassa mablag‘larining eng kam miqdorlari 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

6. 2024-yil uchun viloyatning viloyat byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 25,5 milliard so‘m miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar byudjetlarining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar byudjetlari jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Viloyatning viloyat byudjeti, tumanlar va shaharlar byudjetlarini ijro etish jarayonida yuqori turuvchi byudjetdan ajratiladigan byudjetlararo transfertlar miqdorlari oshgan taqdirda tegishli byudjetlar zaxira jamg‘armalarining belgilangan miqdorlari qayta ko‘rib chiqilmaydi.

Viloyat byudjetining zaxira jamg‘armasidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga mablag‘lar ajratilgan taqdirda ushbu Qarorga o‘zgartirishlar kiritilmaydi.

7. 2024-yilda soliqlarning quyidagi turlari:

a) tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushumlar;

aylanmadan olinadigan soliq;

tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, 2023-yilining 1-iyul holatiga ko‘ra tumanlar va shaharlar aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq, transfertlar shaklida;

b) viloyatning viloyat byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

foyda solig‘idan tushgan tushumlar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari);

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksizsolig‘i;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

v) quyidagi qonunchilikda belgilangan miqdorlarda Davlat byudjetiga taqsimlanadigan daromadlar viloyat byudjeti hamda tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

davlat boji;

jarimalar;

yig‘imlar;

g) tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga quyidagi ulushlarda:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning 50 foizi;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining 50 foizi;

davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlarning 50 foizi;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) Andijon va Xonobod shaharlarida 20 foizi, qolgan hududlarda 25 foizi o‘tkaziladi.

Agar qonunchilikda daromadlarning byudjet darajalari bo‘yicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, mahalliy byudjetlarga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari viloyatning viloyat byudjetiga o‘tkaziladi.

8. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari D.Karimov, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (D.Isomiddinov), viloyat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov) tumanlar va shaharlar

hokimliklari, mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjetlar prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlari bazasini oshirish va qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

9. Viloyat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda belgilangan tartibda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (F.Berdiqulov) bilan birgalikda xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish hamda viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning yer uchastkalari va mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini ta’minlasin.

Majburiy ijro byurosi Andijon viloyat boshqarmasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud qarzdorliklarni byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha zaruriy chora-tadbirlarni ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

10. Viloyat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (F.Berdiqulov), Andijon viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi (A.Akbarov), Tog‘-kon sanoati geologiya vazirligi huzuridagi tog‘-kon geologiya va sanoat

xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi sharqiy mintaqaviy boshqarmasi (J.Qo‘chqaraliyev) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallari hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilsin.

11. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Andijon viloyat hududiy boshqarmasi (A.Alimjanov)ga Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Andijon viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini doimiy shakllantirib borish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “E- IJRO Auksion” elektron savdo maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

12. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Andijon viloyat hududiy boshqarmasi (A.Alimjanov), viloyat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (D.Isomiddinov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (shu jumladan, ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanishi hamda 2024-yilning 1-sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

13. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi (U.Jo‘rayev) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish

choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni tegishli byudjetlarga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

14. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (X.Xamidov) va viloyat soliq boshqarmasi (L.Qurbonov)ga tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar tegishli mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

15. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Raxmatullayev), viloyat yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (A.Nosirov), viloyat adliya boshqarmasi (O.Bozarov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda tegishli byudjetlarga undirish choralarini ko‘rib borsin.

16. Davlat Moliyaviy nazorati inspeksiyasi Andijon viloyat boshqarmasi (B.Qodirov) hududiy byudjet taqsimlovchilarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

17. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatish va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berish maqsadida monitoring qilish;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirib borsin.

18. Tumanlar va shaharlar hokimliklari:

jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlari jami xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar byudjetlari zaxira jamg‘armasi mablag‘lari mustasno) kamida 5 foizi miqdorida, biroq 6 milliard so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda rejalashtirilishini ta’minlasin.

Bunda, viloyat, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman

(shahar)lar hokimliklari huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

19. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari D.Karimov, xalq deputatlari viloyati Kengashi kotibiyati, tumanlar va shaharlar hokimliklari, mutasaddi idora va tashkilotlar:

mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

20. Viloyat hokimining matbuot xizmati (M.Ibroximov)mazkur qarorni matbuotda e’lon qilsin va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

21. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

22. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Abdulazizov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **SH.Q.Abdurahmanov**

Xalq deputatlari Andijon viloyat
Kengashining
2023-yil 26-dekabrdagi
VI-57-255-1-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Andijon viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz	Maqsadli mo‘ljallar	
			2025-yil	2026-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, milliard so‘m	79 383	91 389	104 267
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	6,0	6,1	6,2
3.	Iste’mol narxlari indeksi, o‘tgan yilning dekabr oyiga nisbatan, foizda	8 — 10	7,5 — 8,5	5 — 7
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	7,5	7,7	8,0
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	4,0	4,3	4,4
6.	Xizmatlarning o‘sish sur’ati, foizda	11,2	12,2	13,4

Xalq deputatlari Andijon viloyat
Kengashining
2023-yil 26-dekabrdagi
VI-57-255-1-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Andijon viloyatining viloyat byudjeti daromadlari prognozi

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
1	Foyda solig‘i	199 271 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 574 595 750,0
3	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	411 650 000,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	72 066 000,0
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	90 991 500,0
6	Davlat boji	226 311 000,0
7	Yig‘imlar	122 630 000,0
8	Jarimalar	107 739 000,0
9	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va korxonalari foydasidan ajratmalar	1 734 000,0
10	Davlat mulki obyektlarini sotishdan tushumlar	5 650 000,0
JAMI		**2 812 638 250,0**
Respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar		1 913 771 033,0
shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar		*574 623 959,0*
Hamma daromadlar		**4 726 409 283,0**

Xalq deputatlari Andijon viloyat
Kengashining
2023-yil 26-dekabrdagi
VI-57-255-1-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun Andijon viloyatining viloyat byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
a	**Xarajatlar miqdori, Jami**	**4 726 409 283,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 012 626 101,0**
	shahar va tumanlar byudjetlari tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	**2 153 327 582,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**560 455 600,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta’lim boshqarmasi**	**820 757 004,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	412 457 004,0
	shundan: Professional ta’lim muassasalari xarajatlari	15 602 545,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	408 300 000,0
2	**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi**	**163 242 185,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	163 242 185,0
	shundan: Professional ta’lim muassasalari xarajatlari	162 160 173,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
3	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**986 389 292,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	907 989 292,0
	shundan: Professional ta’lim muassasalari xarajatlari	13 587 926,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	78 400 000,0
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**67 525 013,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	67 525 013,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
5	**Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi**	**117 121 710,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	117 121 710,0
	shundan: Professional ta'lim muassasalari xarajatlari	35 658 584,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
6	**Madaniy meros agentligi**	**4 176 133,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 176 133,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
7	**Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi**	**15 432 447,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 432 447,0
	shundan: Professional ta'lim muassasalari xarajatlari	4 293 046,0
	issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko'rsatilgan issiqlik ta'minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari	180 000,0
	Ko'p kvartirali uylardagi lift uskunalarini ta'mirlash va yangilash xarajatlari	950 400,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
8	**Qishloq xo'jaligi boshqarmasi**	**35 116 744,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	35 116 744,0
	shundan: Professional ta'lim muassasalari xarajatlari	10 708 156,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
9	**O'simliklar karantini hududiy inspeksiyasi**	**15 993 979,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 993 979,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
10	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**68 535 842,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	32 969 642,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	35 566 200,0
11	**Transport boshqarmasi**	**3 637 532,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 637 532,0

	shundan: Professional ta'lim muassasalari xarajatlari	2 225 712,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
12	**Pillachilik va qorako'lchilikni rivojlantirish qo'mitasining hududiy bo'limlarini saqlash xarajatlari**	**191 227,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	191 227,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
13	**Ekologiya va atrof muhitni muxofaza qilish va iqlimni o'zgarishi boshqarmasi**	**8 269 566,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 269 566,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
14	**Iktisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**2 176 894 125,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	23 566 543,0
	Davlat tashqi qarzlarini so'ndirish	11 339 933,0
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarning qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	1 155 000,0
	Advokatlar xizmati xarajatlari	2 200 000,0
	shahar va tumanlar byudjetlari tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	2 153 327 582,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
15	**G'aznachilik xizmati boshqarmasi**	**10 286 174,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 286 174,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
16	**Pensiya jamg'armasining hududiy boshqarmasi**	**14 035 519,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 035 519,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
17	**Kadastri agentligi viloyat boshqarmasi**	**2 431 195,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 431 195,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
18	**Turizm boshqarmasi**	**6 582 938,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 582 938,0
	shundan: Professional ta’lim muassasalari xarajatlari	2 424 180,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
19	**O‘rmon xo‘jalik boshqarmasi**	**11 593 695,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 593 695,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
20	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi**	**8 449 097,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 449 097,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
21	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilarni huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 506 985,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 506 985,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
22	**Qabullar uyi**	**6 713 566,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 713 566,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
23	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 470 444,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 470 444,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
24	**Kambag‘alikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**5 937 827,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 937 827,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
25	**Soliq boshqarmasi**	**24 497 456,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	24 497 456,0
	shundan: Sud boshqaruvchilari mehnatiga haq to‘lash	1 752 085,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**10 676 466,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 676 466,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
27	**Adliya boshqarmasi**	**11 608 557,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 608 557,0
	shundan: Professional ta’lim muassasalari xarajatlari	1 346 177,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
28	**Hokimiyat**	**85 972 748,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	47 783 348,0
	Zahira jamg‘armasi	25 476 058,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	38 189 400,0
29	**Xalq qabulxonasi**	**9 726 296,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 726 296,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
30	**Yoshlar ishlar agentligi**	**3 777 876,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 777 876,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
31	**Oila va xotin-qizlar boshqarmasi**	**1 141 279,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 141 279,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
32	**Davlat arxivi boshqarmasi**	**4 081 029,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 081 029,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
33	**Boshqa tashkilotlar**	**22 637 337,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	22 637 337,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

Xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining
2023-yil 26-dekabrdagi
VI-57-255-1-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024-yil uchun umumdavlat soliqlari va majburiy to‘lovlardan shaharlar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Foyda solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosida to‘lanadigan soliq, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
1	Xonobod shahri	0	100	20	100	100	100	100	100	0	50
2	Andijon shahri	0	100	20	100	100	100	100	100	0	50
3	Andijon tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
4	Baliqchi tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
5	Bo‘ston tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
6	Buloqboshi tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
7	Jalaquduq tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
8	Izboskan tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
9	Ulug‘nor tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
10	Qo‘rg‘ontepa tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
11	Asaka tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
12	Marhamat tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
13	Oltinko‘l tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
14	Shahrixon tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
15	Paxtaobod tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50
16	Xo‘jaobod tumani	0	100	25	100	100	100	100	100	0	50

*Mazkur ilovada ko‘rsatilganidan tashqari qolgan barcha tushumlar viloyat byudjetiga o‘tkaziladi

4-ilovaning davomi

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Yig‘imlar (3422203 daromad kodlari bo‘yicha)*	Davlat bojlari (3422103 daromad kodlari bo‘yicha)*	Jarimalar (3430103 daromad kodlari bo‘yicha)*	Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar	Davlat mulkini xususiylash-tirishdan olingan daromadlar	Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari	Davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar	Boshqa (3450603, 3450723, 3450725, 3450950, 3450951, 3511117, 3511700, 3710303 daromad kodlari bo‘yicha) tushumlar*
1	Xonobod shahri	50	100	100	100	0	50	50	100	100
2	Andijon shahri	50	100	100	100	0	50	50	100	100
3	Andijon tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
4	Baliqchi tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
5	Bo‘ston tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
6	Buloqboshi tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
7	Jalaquduq tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
8	Izboskan tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
9	Ulug‘nor tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
10	Qo‘rg‘ontepa tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
11	Asaka tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
12	Marhamat tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
13	Oltinko‘l tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
14	Shahrixon tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
15	Paxtaobod tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100
16	Xo‘jaobod tumani	50	100	100	100	0	50	50	100	100

Xalq deputatlari Andijon viloyat
Kengashining
2023-yil 26-dekabrdagi
VI-57-255-1-0-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024-yil uchun tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

№	Hududlar nomi	Daromadlar*	Xarajatlar
	JAMI	**1 274 646 750,0**	**3 427 974 332,0**
1	Xonobod shahri	27 318 600,0	87 407 614,0
2	Andijon shahri	319 127 400,0	425 317 658,0
3	Andijon tumani	91 130 750,0	239 072 734,0
4	Baliqchi tumani	64 973 000,0	211 348 477,0
5	Bo‘ston tumani	25 827 250,0	130 883 559,0
6	Buloqboshi tumani	45 122 500,0	169 640 972,0
7	Jalaquduq tumani	54 245 250,0	204 706 751,0
8	Izboskan tumani	62 484 000,0	236 315 326,0
9	Ulug‘nor tumani	26 783 750,0	112 770 518,0
10	Qo‘rg‘ontepa tumani	87 520 250,0	243 676 650,0
11	Asaka tumani	155 559 750,0	292 380 530,0
12	Marhamat tumani	53 706 000,0	198 842 372,0
13	Oltinko‘l tumani	57 234 500,0	198 788 950,0
14	Shahrixon tumani	82 991 250,0	276 491 164,0
15	Paxtaobod tumani	54 944 250,0	254 339 780,0
16	Xo‘jaobod tumani	65 678 250,0	145 991 277,0

** tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olmagan holda*

Xalq deputatlari Andijon viloyat
Kengashining
2023-yil 26-dekabrdagi
VI-57-255-1-0-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024-yil uchun Andijon viloyatining viloyat byudjetidan tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududlar nomi	Summa	*shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajaratiladigan mablag‘lar**
	JAMI	**2 153 327 582,0**	**574 623 959,0**
1	Xonobod shahri	60 089 014,0	7 785 339,0
2	Andijon shahri	106 190 258,0	81 175 235,0
3	Andijon tumani	147 941 984,0	48 416 641,0
4	Baliqchi tumani	146 375 477,0	36 522 087,0
5	Bo‘ston tumani	105 056 309,0	13 164 186,0
6	Buloqboshi tumani	124 518 472,0	25 888 258,0
7	Jalaquduq tumani	150 461 501,0	33 717 967,0
8	Izboskan tumani	173 831 326,0	43 236 865,0
9	Ulug‘nor tumani	85 986 768,0	10 876 587,0
10	Qo‘rg‘ontepa tumani	156 156 400,0	39 033 256,0
11	Asaka tumani	136 820 780,0	60 072 379,0
12	Marhamat tumani	145 136 372,0	31 541 041,0
13	Oltinko‘l tumani	141 554 450,0	32 664 881,0
14	Shahrixon tumani	193 499 914,0	54 879 412,0
15	Paxtaobod tumani	199 395 530,0	35 333 317,0
16	Xo‘jaobod tumani	80 313 027,0	20 316 508,0

** tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar*

Xalq deputatlari Andijon viloyat
Kengashining
2023-yil 26-dekabrdagi
VI-57-255-1-0-K/23-son qaroriga
7-ilova

2024-yil uchun Andijon viloyatining viloyat byudjeti hamda tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlari aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududlar nomi	Summa
	JAMI	**24 000 000,0**
	Viloyat byudjeti	**10 316 000,0**
1	Xonobod shahri	348 000,0
2	Andijon shahri	1 700 000,0
3	Andijon tumani	954 000,0
4	Baliqchi tumani	844 000,0
5	Bo‘ston tumani	522 000,0
6	Buloqboshi tumani	677 000,0
7	Jalaquduq tumani	817 000,0
8	Izboskan tumani	943 000,0
9	Ulug‘nor tumani	449 000,0
10	Qo‘rg‘ontepa tumani	973 000,0
11	Asaka tumani	1 168 000,0
12	Marhamat tumani	794 000,0
13	Oltinko‘l tumani	793 000,0
14	Shahrixon tumani	1 104 000,0
15	Paxtaobod tumani	1 016 000,0
16	Xo‘jaobod tumani	582 000,0